

2025-2026 yil o'quv yili uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida
“Birinch qo'ng'iroq” tadbirlarini o'tkazish bo'yicha
TAVSIYALAR

*“Har bir kun – bu imkoniyat,
har bir kun – bu kelajak uchun poydevor”.*
Sh.Mirziyoyev

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **“O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida”** 2025-yil 10-iyuldagi PQ-222-son qarorida ilgari surilgan g'oyalarni hayotga tatbiq etish, ularni o'quvchi-yoshlar ongiga singdirish, Yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni barpo etish, Vatanga sodiq, yurt kelajagi va taraqqiyotiga daxldor, yuksak ma'naviyatli, qat'iy e'tiqodga va mustaqil fikrga ega bo'lgan, fuqarolik burchini chuqur his qiladigan, vatanparvarlik ruhida tarbiyalangan barkamol avlodni shakllantirishda o'ta muhim o'rin tutadi.

Respublikamizda 2025-2026-o'quv yili boshlanishi munosabati bilan barcha umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida **“Birinch qo'ng'iroq”** tadbirlarini yuqori saviyada o'tkazish maqsadida quyidagilarga amal qilish tavsiya etiladi:

- umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida **“Birinch qo'ng'iroq”** tadbirlarini joriy yilning **2-sentabr kuni soat 8:00 da “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”** shiori ostida tashkil etish;

- maktab hududidagi maydonni mustaqillik bayrami kayfiyatida **“Birinch qo'ng'iroq”** va Mustaqillikning o'ttiz to'rt yilligiga bag'ishlangan **“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”** shioriga monand tarzda bezatish; *(bunda maktab imkoniyatidan kelib chiqqan holda sahna va uning atrofini bayramona bezaklar bilan jihozlanishi tavsiya etiladi.)*

- bayram tadbirlarini maktab hovlisi, bog'i yoki boshqa soya-salqin ochiq maydonlarda o'tkazish, maktab hududini talab darajasida jihozlash, bayram tadbiri jarayonida sanitariya-gigiyena va tozalik talablariga, yong'in va texnika xavfsizligiga rioya qilgan holda tashkil etish;

- tadbirga mahalla, ota-onalar, huquqni muhofaza qilish idoralari vakillarini taklif etish va tadbirni ular bilan hamkorlikda tashkil etish;

- maktab rahbariyati tomonidan tadbir ishtirokchilariga mustaqilligimizning o'ttiz to'rt yillik bayrami hamda **“Birinch qo'ng'iroq”** tadbiri bilan tabriklash jarayonida yurtimizda so'nggi yillarda erishilgan yutuqlar, amalga oshirilgan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlari, ta'lim tizimidagi islohotlar to'g'risida aniq misollar va raqamlar keltirilgan holda ma'lumot berish;

- boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy imkoniyatlarini inobatga olgan holda **“Birinch qo'ng'iroq”** tadbiri davomiyligini **45 daqiqadan** ko'p o'tkazmaslik;

- tadbir tugaganidan keyin barcha sinflarda **“Mustaqillik” (“Kelajak soati”)** dars mashg'ulotlari o'tilishini ta'minlash.

“Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbirlariga Oliy Majlis Senati a‘zolari, deputatlar, faxriy o‘qituvchilar, mahalladagi mehnat faxriylari, o‘quvchilarning ota-onalari, kasaba uyushmasi, yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi vakillari, yozuvchilar uyushmasi a‘zolari, “mahalla yettiligi” a‘zolari va boshqa hamkor tashkilotlar vakillari taklif etiladi. Tadbir jarayonida o‘quvchilarga bayram tabrigi va yaxshi tilaklar bildiriladi.

Shuningdek, tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 34 yillik bayramiga bag‘ishlangan marosimdagi nutqidan foydalanish tavsiya etiladi.

“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”

*(Umumta’lim maktablari uchun “Birinch*i qo‘ng‘iroq” tadbirining
namunaviy senariysi)

**“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan,
ta’lim-tarbiyadan boshlanadi”**

Sh.Mirziyoyev

“Birinchi qo‘ng‘iroq” tadbiri maktabning rahbari boshchiligida, direktorning ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, o‘qituvchi-murabbiylar, sinf rahbarlari hamkorligida rejalashtiriladi hamda ushbu maktab senariysi ishlab chiqiladi.

Tadbir ishtirokchilari (2 nafar boshlovchi va o‘quvchilar) Vatanni madh etuvchi qo‘shiq yoki musiqa sadolari ostida sahnaga tashrif buyurishadi.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, mehri daryo ustozlar va qadrli mehmonlar!

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz o‘quvchilar! Sizlarni davlatimiz mustaqilligining 34 yillik shodiyona bayrami hamda **“Birinch**i qo‘ng‘iroq” bilan chin dildan tabriklaymiz!

1-boshlovchi:

Assalom, ona yurt, tonglar o‘lkasi,

Ta’rif-tavsifingni yo‘q nihoyasi.

Senga bag‘ishlanur muqaddas qo‘shiq

Bu – o‘zbek elining o‘z madhiyasi!

(O‘zbekiston Respublikasining Davlat Madhiyasi yangraydi.)

2-boshlovchi: Azizlar, tadbirni ochib berish uchun so‘zni maktabimiz direktori (mehmon) ga _____ga beramiz. Marhamat!

Tabrik so‘zi. (3 daqiqa)

1-boshlovchi:

She'rlar ayta boshlasam avj, baland pardalarda,
Ming-ming o'g'il-qizlarim qo'zg'al-di partalarda.
Shu jonim sadqadalar-da, shu jonim sadqalar-da!
Yangi maktablaringga bor-budim nisor bo'lsin,
Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

2-boshlovchi:

Bo'lar elning bolasi o'zi ma'lum bergaydir,
Yuz ming o'smir dasturchi ilmu ulum bergaydir,
Menday yuz ming shoirga bari ta'lim bergaydir.
Zamonangdan aylanay, jiddu jahding bor bo'lsin,
Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

1-boshlovchi:

Garvardda o'qiysanmi yoki Kembrijdami,
Yaqindagi xorijdami yo yiroq xorijdami,
Sayru gashtlar aylasang Porij yo Forishdami –
Qayda bo'lsang ham ilming elingga darkor bo'lsin,
Yangi O'zbekistonga omad doim yor bo'lsin.

(Sirojiddin SAYYID)

Musiqiy chiqish. (3 daqiqa)

(O'quvchilar ijrosida qo'shiq yoki raqs ijro etiladi.)

1-boshlovchi: Yurtimiz 1991-yil 31-avgustda o'zining mustaqil davlat ekanligini e'lon qildi va 1-sentabr **“O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni”** deb e'tirof etildi. O'tgan 34-yil davomida yurt ravnaqi, xalq farovonligi yo'lida asrga teng tarixiy ishlar amalga oshirildi.

2-boshlovchi: Darhaqiqat, bugungi kunda hurmatli Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli o'quvchi-yoshlar, har jabhada, xususan, xalqaro sport musobaqalarida, fan olimpiadalarida, musiqa va san'at tanlovlarida sovrinli o'rinlarni egallamoqdalar. Ular o'zlari istagan oliygohlarning talabalariga aylanishmoqda. Bunday imkoniyatlarning barchasiga mustaqillik sabab erishib kelmoqdamiz!

Birgina, o'tgan o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarini **451 ming bitiruvchi** bitirgan bo'lsa, shundan **115 ming nafardan ortig'i davlat oliy ta'lim muassasalarida talaba** bo'lish baxtiga muyassar bo'ldi.

1-boshlovchi: Yana bitta yorqin misol, joriy yil barcha xalqaro olimpiadalarda terma jamoamiz tarixdagi **eng yaxshi natijalarga erishdi.**

Xususan, 57-Xalqaro kimyo olimpiadasida **2 ta oltin va 2 ta kumush medal** bilan **90 davlat orasida 8-o‘rin**, O‘rta Osiyoda **1-o‘rin**, 66-Xalqaro matematika olimpiadasida esa **4 ta kumush va 1 ta bronza medal bilan 115 davlat orasida 27-o‘rinni** egalladi.

Xalqaro olimpiadalarda maktab o‘quvchilari tomonidan so‘ngi **7 yilda 541 ta** (72 ta oltin 182 ta kumush 287 bronza medal) **medal** qo‘lga kiritildi.

Bundan tashqari, sportga berilgan imkoniyatlar natijasida **futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi o‘z tarixida ilk bor 2026-yilda AQSh, Kanada, Meksika maydonlarida bo‘lib o‘tadigan Jahon chempionatiga yo‘llanmani** qo‘lga kiritdi.

2-boshlovchi: Biz ham Yangi O‘zbekiston yaratib berayotgan ulkan imkoniyatlardan foydalanib shunday natijalar ko‘rsatamizmi? ... Har birimiz **Yangi O‘zbekistonning yangi kelajagini** yaratishga o‘z hissamizni qo‘shamizmi?...

She‘riy guldasta. (3 daqiqa)

(Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tomonidan Vatan mustaqilligini tarannum etuvchi she‘rlar o‘qiladi.)

1-boshlovchi: Yangi o‘quv yili boshlanishi munosabati bilan maktabimizning o‘quvchi-yoshlarini tabriklash uchun so‘zni *(ota-onalar, mahalla, faol jamoatchilik vakillari)*_____ga beramiz. Marhamat!

Tabrik so‘zi. (3 daqiqa)

2-boshlovchi: Mana tadbirimiz ham o‘z nihoyasiga yetib bormoqda! Barchangizni maktabning birinchi qo‘ng‘irog‘i sadolari ostida yangi o‘quv yilining ilk darsi “Mustaqillik darsi” ga chorlab qolamiz! Aziz o‘quvchilar, sizlarga yangi o‘quv yilini a‘lo baholar bilan o‘qishingizni, Yangi O‘zbekiston kelajagining munosib bunyodkorlari bo‘lib yetishingizni tilab qolamiz!

1-boshlovchi:

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Tuprog‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo.
Nechun Vatan, deya yeru osmonin,
Muqaddas atayman, atayman tanho!

(Abdulla Oripov)

(Shundan so‘ng, birinchi qo‘ng‘iroq chalinadi. Qo‘ng‘iroq chalinib bo‘lgandan so‘ng, Sevara Nazarxonning “Ulug‘imsan Vatanim” qo‘shig‘i ostida o‘quvchilar sinf rahbarlari boshchiligida kuzatiladi va barcha sinflarda “Kelajak soati” dars mashg‘ulotlari tashkil etiladi.)

E‘tiboringiz uchun rahmat!